

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.I.01.09 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAMATOV ZAFARBEEK JUMANIYOZOVICH

**YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TOG‘-KON SANOATI
KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
("OLMALIQ KMK" AJ misolida)**

08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Table of contents of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Ramatov Zafarbek Jumaniyazovich

Yashil iqtisodiyot sharoitida tog‘-kon sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish (“Olmaliq KMK” AJ misolida).....3

Раматов Зафарбек Жуманиязович

Повышение экономической эффективности горнодобывающих предприятий в условиях зелёной экономики (на примере АО “Алмалыкский ГМК”)..... 25

Ramatov Zafarbek Jumaniyozovich

Improving the economic efficiency of mining enterprises under the conditions of a green economy (on the Example of JSC «Almalyk MMC»).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....61

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.I.01.09 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAMATOV ZAFARBEEK JUMANIYOZOVICH

**YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TOG‘-KON SANOATI
KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
("Olmaliq KMK" AJ misolida)**

08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt4893 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat transport universiteti Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldasheva Saodat Arislanovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Turaev Baxodir Xatamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xudaynazarova Dilorom Xayrullayevna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.10/2025.27.12.I.01.09. raqamli Ilmiy Kengashning 20 yil "___" _____soat dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Temiryo'Ichilar ko'chasi,1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; faks: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil: 100060, Toshkent shahri, Temiryo'Ichilar ko'chasi,1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "___" _____da tarqatildi.
(2026 yil "___" _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

O.K.Abduraxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

A.X.Jalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.f.d., dotsent

N.A.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon hamjamiyatida globallashuvning yashil iqtisodiy munosabatlari xalqaro siyosat, iqtisodiy hamkorlik va ekologik majburiyatlar asosida tizimlashtirilgan tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni oshirish, uglerod emissiyasini kamaytirish, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish singari tashkiliy-iqtisodiy uyg'unlikni qamrab olmoqda. Global miqyosda yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga iqtisodiy manfaatlarning ta'siri bo'lishidan tashqari, mamlakatlar kelajakka strategik yondashish hamda kelgusi avlodni ijtimoiy himoyalash maqsadida yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish bilan cheklanmasdan, ekologik majburiyatlar va moliyaviy bosim tufayli ushbu jarayonga innovatsion yondashmoqdalar. Masalan, "Buyuk Britaniyada yashil iqtisodiyot sektori 2024-yilda 10 foizga o'sib, yalpi qo'shilgan qiymatga 83 milliard funt sterling hissa qo'shdi. Bu soha 22 000 ta biznesni o'z ichiga olib, deyarli bir million kishini ish bilan ta'minladi"¹. Bu o'z navbatida, yashil iqtisodiyotning qo'shimcha qiymat yaratish hamda innovatsion salohiyatini yuqori ekanligini anglatadi, uni tobora rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga sezilarli ta'sir qiladi.

Jahonda "yashil iqtisodiyot" talablari kuchayib borayotgan sharoitda tog'-kon sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi resurs tejamkorlik, uglerod izini kamaytirish va ESG ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan uyg'un holda hal etilishi zarurligi sababli mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar izchil ravishda olib borilmoqda. Ushbu muammo bo'yicha ustuvor ilmiy tadqiqotlar, asosan, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: energiya samaradorligi va dekarbonizatsiya (elektrifikatsiya, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish, yoqilg'i-energiya sarfini optimallashtirish), suv resurslarini tejash va aylanma suv ta'minoti orqali ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash hisobiga qo'shimcha qiymat yaratish, "aqli kon" va oldindan bashoratga asoslangan texnik xizmat (ta'mir) ko'rsatish asosida uskunalarning ishonchligi hamda mehnat unumdorligini oshirish, hayot sikli tahlili (LCA), uglerod hisoboti va ESG risk-menejmenti orqali investitsiya jozibadorligi hamda moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

O'zbekiston ekotizimining barqaror rivojlanishi, yashil iqtisodiyotning tarmoqlar va sohalarda samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar hamda uzoq muddatli loyihalarning amaliy natijasi kun sayin oshib bormoqda. Mamlakatda 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. «So'nggi yillarda mamlakatning jami quvvatlarida "yashil" energiya ulushi 16 foizga yetdi. Bu yil uni 26 foizga chiqarish rejalashtirilgan. Buning uchun yana 3,5 gigavattli 16 ta yirik quyosh va shamol stansiyasi, 160 megavattli 5 ta yirik GES va 1,8 gigavattli energiya saqlash quvvatlari ishga tushiriladi»² singari chora-tadbirlar rejasi belgilab berildi. Bu o'z navbatida yashil iqtisodiy samaradorlikni oshirish va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy jihatlarni yanada e'tibor markazida bo'lishini, hamda tarmoq va sohalarda

¹ <https://www.theguardian.com/environment/2025/feb/24/britain-net-zero-economy-booming-cbi-green-sector-jobs-energy-security>

² https://api-portal.gov.uz/uploads/e24d038b-6136-1f8a-5f57-11ac9cce6d82_media_.pdf

uning xususiy komponentlariga urg'u bergan holda faoliyatini takomillashtirish ahamiyatini tavsiflaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 10-noyabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha Hailan Guo esa apparel kompaniyalarda yashil ishlab chiqarishni rivojlantirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xorijiy iqtisodchi olimlar tadqiqot ishlarining aksariyati global iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liqligini, yashil iqtisodiyotning biznes strategiyalariga ta'sirini, yangi imkoniyatlarini muhokama va yashil yo'nalishdagi ish o'rinlarining iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi rolini o'rganishga bag'ishlagan bo'lib, ularning mualliflari sifatida J.Makower, C.Pike, V.Jonas, S.Craig, J.A.Lamphere, W.L.Filho, R.Watt, Georgeson, T.Lucien, M.Zhang, S.McCabe, B.Nielsen, E.C.Hidalgo, P.S.Palao, D.Sindile, Ch.Yang, D.Dharshini, L.Harris³e'tirof etish mumkin.

³ Joel Makower, Cara Pike. Strategies for the Green Economy: Opportunities and Challenges in the New World of Business. Publisher : McGraw Hill; 1st edition ,2008 y, 313p //Van Jones .The Green Collar Economy :How One Solution Can Fix Our Two .Publisher-HarperOne ,2009 y. 260p // .Curt Mayoh .Catalysing the Growth of the Green Economy : The Environmental Goods and Services Industry and the Implementation of Sustainable Development. Queen's University Belfast, 2010 y (Abstract of thesis Dissertation (candidate's))//Craig Stephen L. The economic development potential of the green economy. University of Texas Austin, 2011 (Abstract of thesis Dissertation (candidate's))//Lamphere Jenna Ann. Shades of Green: A Comparative Analysis of U.S. Green Economies. University of Tennessee 2016 y https://trace.tennessee.edu/utk_graddiss/4144 (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Walter Leal Filho. Sustainable Economic Development: Green Economy and Green Growth, Publisher : Springer; 1st ed., 342p ,2017// Watt Robert. The moral economy of carbon offsetting : ethics, power and the search for legitimacy in a new market. University of Manchester. 2017 y (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Georgeson, Lucien Tomas. Redefining and measuring the global green economy : tracking green economy transformations using transactional data. University College London (University of London). 2018 y <https://ethos.bl.uk/OrderDetails.do?uin=uk.bl.ethos.763280> (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Zhang

MDH davlatlari olimlari S.V.Prokopenkov, N.P.Sadovnikova, X.M.Rushadi Axmad, M.R.Avrora, O.M.Valerevich, A.A.Lagutenkov, A.V.Beloshiskiy, A.M.Zaripov, I.V.Kononovich, N.A.Dadayan⁴ kabi iqtisodchi olimlari yashil iqtisodiy faoliyatga o'zgacha yondashgan holda ekologiya va yashil iqtisodiyot mavzulari bo'yicha sanoat, urbanizatsiya, davlat siyosati, yashil innovatsiyalar va yashil moliyalashtirish kabi jihatlarini ochib berishgan.

O'zbekistonlik olimlar M.X.Saidov, Sh.N.Muratova, T.K.Iminov, A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, Sh.A.Toshmatov, M.T.Butaboyev, G.J.Allayeva, D.Sh.Yavmutov, S.N.Xashimova, B.T.Qodirov⁵ raqamli iqtisodiyot, yashil

Min. The evolvement of China-EU cooperation on climate change and its new opportunities under the European Green Deal. Fundación Universitaria San Pablo CEU, CEU Ediciones, 2020. ISBN 9788417385637 (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Steven McCabe, Beverley Nielsen. Exploring the Green Economy: Issues, Challenges and Benefits. Publisher : Bite- Sized Books Ltd(July4 ,2021(, 148p //Esteban Cruz Hidalgo .Elementos para un Green New Deal. Universidad de Extremadura, Servicio de Publicaciones, 2021. ISBN 978-84-09-30810-1 (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Hailan Guo. Promoting green manufacturing in apparel companies from a Circular Economy perspective. Durham University. (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) 2021 y //Pablo Serra Palao. Estudios sobre la efectividad del Derecho de la biodiversidad y del cambio climático. Tirant lo Blanch, 2022. ISBN 978-84-1147-464-1 (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Dlamini Sendile. The role of the institutional environment as a barrier or an enabler to entrepreneurial and innovation activity : the case of the South African green economy industry (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) 2023 y//Cheng Yang. Tasks, Skills, and Jobs in the Green Economy. Virginia TechUniversity, 2024 y// <https://hdl.handle.net/10919/119173> (Abstract of thesis Dissertation (candidate's)) // Dharshini David. Environomics: How the Green Economy is Transforming Your World . Publisher : Elliott& Thompson(August9 ,2024(, 288p //Lindsey Harris .Embodiment and Precarity in Deep Seabed Mining :Extraction on the Blue Green Resource Frontier. University of Hawai'i at Mānoa, 2024 y

⁴ Прокопенков С. В. Методология и методы формирования экологической стратегии развития промышленности региона. Автореферат по ВАК РФ 08.00.05, доктор экономических наук, «Санкт-Петербургский государственный инженерно-экономический университет». 2012 г, 35 стр.// Садовникова Н. П. Автореферат по ВАК РФ 05.23.19, кандидат наук, методологические основы поддержки принятия решений в задачах обеспечения экологической безопасности развития урбанизированных территорий. «Волгоградский государственный архитектурно-строительный университет, 2013 г., 32 стр.// Халил Мусаб Рушади Ахмад. Научно-методическое обеспечение государственной политики регулирования зеленой экономики в контексте устойчивого развития. Автореферат по ВАК РФ 08.00.05, кандидат наук, 2020 г, Юго-Западный государственный университет, 24 стр.// Матеос Родригес Аврора. Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития. Автореферат по ВАК РФ 08.00.05, кандидат наук, Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2021 г, 25 стр.// Онищенко М. В. Политика развития зеленой экономики: компаративные ракурсы. Автореферат по ВАК РФ 08.00.05, кандидат наук. Кубанский государственный университет, 2022, 27 стр.// Лагутенков А. А. Развитие организационно-экономического механизма «зелёных» инноваций в нефтегазовом комплексе. Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого. Автореферат диссертации кан. наук, 2022 г, 24 стр.// Белошицкий А. В. Инвестирование в технологии по требованиям «зелёных» стандартов финансирования: критерии, инструменты, тенденции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Международный банковский институт имени Анатолия Собчака, 2022 г., 20 стр.// Зарипов А. М. Повышение энергоэффективности экономики для реализации целей устойчивого развития. Высшая школа бизнеса ФГАОУ ВО «Казанский федеральный университет». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2022 г, 25 стр.// Кононович И. В. Становление зеленой экономики в странах с формирующимся рынком. Автореферат диссертации кан. наук, 2023 г, 26 стр.// Дадаян Нарине Аркадьевна. Обеспечение социально-экономического развития региона на основе концепции экологического маркетинга. Автореферат диссертации кан. наук, 2024 г, 24 стр.

⁵ Saidov M. X. Экономическое регулирование развития регионального хозяйства с учетом экологических факторов (на примере Кашкадарьинской области). Дис...канд. экон. наук. — Т.: 1994. - 136 s.// Muratova Sh.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yoqilg'i energetika majmuasini iqtisodiy-ekologik rivojlantirish iqtisodiyot fan. falsafa doktori dis. ... avtoreferati: 08.00.03. Toshkent davlat texnika universiteti, 2018 , 64 b.// Иминов Т. К., Вахобов А. В. и др. «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития. Монография. — Т.: 2019. «Aloqachi»Vaxabov// A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - Т.: «Universitet», 2020, 296 bet.// Развитие цифровых технологий на предприятиях топливно-энергетического комплекса [Текст] : монография / Г. Ж. Аллаева ; Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. — Ташкент.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021, 120 s.//Yavmutov D. Sh. «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish

iqtisodiyot va ekologik jihatdan barqaror iqtisodiy rivojlanish mavzularida izlanishlar olib borgan, yashil iqtisodiyotga o'tishning ilmiy- nazariy asoslari, moliyaviy va texnologik jihatlari, hamda mintaqaviy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilgan, barqaror iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishlari va uslublarini yoritib bergan.

Bu tadqiqotlar iqtisodiy tizimlarni ekologik barqaror rivojlantirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish, texnologik innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyotning rolini ochib berishga qaratilgan, ammo ularda konchilik sanoatida yashil iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari o'rganilmaganligi sababli mazkur tadqiqot ishi dolzarlikni kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida tog'-kon sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yashil iqtisodiyot sharoitida tog'-kon sanoati korxonalari samaradorligini oshirishning iqtisodiy-nazariy asoslarini o'rganish;

tog'-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini o'rganish va bu borada muallif yondashuvini ishlab chiqish;

konchilik korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tajribasini tadqiq etish va qiyoslash;

“Olmaliq KMK”AJ yashil iqtisodiy faoliyati va uning samaradorligi, tashkiliy-iqtisodiy hamda yashil iqtisodiy tahlilini amalga oshirish uning yashil investitsion va yashil strategik holatini baholash;

“Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, yashil iqtisodiy samaradorligini oshirish modelini sihalb chiqish va strategiyasi imkoniyatlarini o'rganish asosida tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida yashil iqtisodiyot sharoitida “Olmaliq KMK” AJning iqtisodiy samaradorligini oshirish faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini yashil iqtisodiyot sharoitida “Olmaliq KMK” AJning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda kuzatuv, tizimli va iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, guruhlash, statistik, korrelyatsion va regression tahlil, ekspert baholash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tog'-kon sanoati korxonalarining grinometrik samaradorligini baholash usuli

metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida), Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, 2024 y, 75 b// Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent davlat texnika universiteti. Toshkent : Ma'rifat, 2024 y, 224 b// Qodirov B. T. “Yashil iqtisodiyot”da moliyalashtirish muammolari va yechimlari [Matn] : monografiya / Bahodir Tursunovich Qodirov ; O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti. Andijon : DEVORBOP MATERIALLARI, 2024, 159

konchilik korxonalarining barqaror yashil iqtisodiyotga integratsiyasini chuqurlashtirish va optimallashtirish orqali resurs tejamkorligi, ekologik muvozanat va innovatsion yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligini maksimal darajaga yetkazish orqali takomillashtirilgan;

“Olmaliq KMK” AJning grinometrik tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini barqaror yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda kon sanoatining tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga qaratilgan kompleks integratsion tizim sifatida takomillashtirishda ekologik ($0,25 \leq E \leq 0,39$), iqtisodiy ($0,45 \leq I \leq 0,52$) va texnologik ($0,35 \leq T \leq 0,44$) omillarning maqbul nisbatini ta'minlash taklifi asoslangan;

uglerod neytrallikka erishish maqsadida raqamlashtirilgan energiya boshqaruvi, chiqindisiz ishlab chiqarish, sirkulyar iqtisodiyot orqali yashil iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan “Olmaliq KMK” AJning 2030-yilgacha uglerod neytralligi strategiyasi ishlab chiqilgan;

“Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmi va strategiyalariga ko'ra ekologik-moliyaviy ko'rsatkichlar va uglerod neytralligi dinamikasining o'zaro ta'sirining VAR modeli bo'yicha tahlili asosida 2035-yilga qadar grinometrik darajasining integratsiyalashgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligi va uni oshirishga qaratilgan ilmiy hamda iqtisodiy-nazariy asoslar chuqur tahlil qilingan;

tadqiqot doirasida baholash usullari izchil o'rganilib, muallif yondashuvi asosida tog'-kon sanoati korxonalarining grinometrik samaradorligini baholash usuli ishlab chiqilgan;

xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning ilg'or tajribalari, mamlakat sharoitiga mos modellar tadqiq etilib, ulardagi komponentlar asosida “Olmaliq KMK” AJning grinometrik tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi shakllantirilgan;

korxonaning yashil iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish maqsadida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, yashil iqtisodiy samaradorlik strategiyasini joriy etish taklif etilgan;

korxonaning yashil iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan istiqbolli imkoniyatlar baholanib, ilmiy yangiliklarning amaliyotga tatbiq etilishi ekonometrik modellashtirish asosida prognoz parametrlari hisoblangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ma'lumotlarning rasmiy manbalarga asoslanganligi bilan belgilanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, “Olmaliq KMK” AJ, shuningdek, “Yashil iqtisodiyot” milliy platformasi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli iqtisodiyot va ekologik transformatsiya markazi, Yashil energiya agentligi kabi muassasalarning amaliyotga joriy etilgan statistik ma'lumotlari asosida olib borildi. Tadqiqot, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti

(OECD), BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), Global yashil o'sish instituti (GGGI), Xalqaro yashil iqtisodiyot alyansi (PAGE) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqot va tahlillarga tayanadi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tog'-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va ilmiy asoslarni takomillashtirish, grinometrik baholash usulidan samarali foydalanish hamda yashil iqtisodiy transformatsiya mexanizmlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati tog'-kon sanoatida yashil iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan model va strategiyalarning real sektorda tatbiq etilishi bilan tavsiflanib, "Olmaliq KMK" AJ uchun yashil iqtisodiyot strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, uglerod neytralligiga erishish, chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish va yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan strategiya orqali resurslarni yanada samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashil iqtisodiyot sharoitida tog'-kon sanoati korxonalarining oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

tog'-kon sanoati korxonalarining grinometrik samaradorligini baholash usuli konchilik korxonalarining barqaror yashil iqtisodiyotga integratsiyasini chuqurlashtirish va optimallashtirish orqali resurs tejamkorligi, ekologik muvozanat va innovatsion yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligini maksimal darajaga yetkazish orqali takomillashtirish taklifi "Olmaliq KMK" AJning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatida joriy qilingan ("Olmaliq KMK" AJning 2026-yil 27-fevraldagi №02-26/05-01822-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligini baholash imkoniyati yuzaga kelib, 2024-yilda iqtisodiy samaradorlik 2 foizni tashkil etishi aniqlangan;

"Olmaliq KMK" AJning grinometrik tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini barqaror yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda kon sanoatining tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga qaratilgan kompleks integratsion tizim sifatida takomillashtirishda ekologik ($0,25 \leq E \leq 0,39$), iqtisodiy ($0,45 \leq I \leq 0,52$) va texnologik ($0,35 \leq T \leq 0,44$) omillarning maqbul nisbatini ta'minlash taklifi "Olmaliq KMK" AJning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatida joriy qilingan ("Olmaliq KMK" AJning 2026-yil 27-fevraldagi №02-26/05-01822-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yilda yashil samaradorlik indeksi 38 foizni tashkil etgan hamda yashil investitsiyalar 16329,68 mlrd. so'm qiymatida o'z aksini topgan;

uglerod neytrallikka erishish maqsadida raqamlashtirilgan energiya boshqaruvi, chiqindisiz ishlab chiqarish, sirkulyar iqtisodiyot orqali yashil iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan "Olmaliq KMK" AJning 2030-yilgacha ishlab chiqilgan uglerod neytralligi strategiyasi "Olmaliq KMK" AJning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatiga joriy qilingan ("Olmaliq KMK" AJning 2026-yil 27-fevraldagi №02-26/05-01822-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga

joriy etilishi natijasida yashil innovatsiyalar samaradorligi 2,8 foizga yetishiga muvaffaqiyatli erishilgan;

“Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmi va strategiyalariga ko‘ra ekologik-moliyaviy ko‘rsatkichlar va uglerod neytralligi dinamikasining o‘zaro ta‘sirining VAR modeli bo‘yicha tahlili asosida 2035-yilga qadar ishlab chiqilgan grinometrik darajasining integratsiyalashgan prognoz ko‘rsatkichlari “Olmaliq KMK” AJning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatida 2024-yil 11-sentyabr №304-sonli buyrug‘i bilan 2035-yilgacha grinometrik darajasining integratsiyalashgan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqish maqsadida qo‘llanilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2026-yil 27-fevraldagi №02-26/05-01822-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2026-yil yakuniga kelib yashil iqtisodiy samaradorlik 1,0 mlrd. so‘mga yaqin mablag‘ni tashkil etishi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ishlar e‘lon qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, boblar yuzasidan qisqacha xulosalar va xulosa, shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi umumiy 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, uning zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek obyekt va predmeti shakllantirilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va uning amaliy natijalari keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot ishi doirasida muallif tomonidan nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha batafsil ketma-ket ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tog‘-kon sanoati korxonalarini yashil iqtisodiy samaradorligi va uni oshirishning iqtisodiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida konchilik sanoati korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va ilmiy asoslarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun ekologik samaradorlik va yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari xorij tajribasiga ko‘ra tahlil qilingan. Shuningdek, tog‘-kon sanoatining an‘anaviy iqtisodiy samaradorligi bilan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan va energiya samaradorligini oshirish muhim omillar sifatida ajratib ko‘rsatilgan.

1-jadval

“Yashil iqtisodiyot”ning ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotiga muqobilligini belgilovchi nazariy asoslar⁶

Xususiyat	Atrof-muhit iqtisodiyoti	Ekologik iqtisodiyot	Yashil iqtisodiyot
Asosiy maqsad	Atrof-muhit muammolarini iqtisodiy tahlil va bozor mexanizmi orqali hal etish	Iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlili, barqarorlikni saqlaydi	Iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq qayta shakllantirish
Yondashuv	Neo-klassik iqtisodiyot tamoyillariga asoslanadi; bozor muvaffaqiyatsizliklarini tuzatish uchun soliqlar va subsidiyalar kabi vositalardan foydalanadi	Transdisiplinar yondashuvni qo‘llaydi; iqtisodiy faoliyatni tabiiy tizimlarning chegaralari doirasida ko‘rib chiqadi va kuchli barqarorlikka intiladi.	Iqtisodiyotni ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror bo‘lishi uchun siyosiy va iqtisodiy islohotlarni ilgari suradi; yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarga urg‘u beradi.
Barqarorlik tushunchasi	Zaif barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi; inson va tabiiy kapitalni almashtirish mumkin deb hisoblaydi.	Kuchli barqarorlik; tabiiy kapitalni inson kapitali bilan to‘liq almashtirib bo‘lmaydi deb hisoblaydi.	Barqarorlikni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bog‘liqligi; iqtisodiy o‘sishga nisbatan sifatli rivojlanishga urg‘u beradi.
Amaliyotga tatbiq	Atrof-muhit siyosatini shakllantirishda iqtisodiy vositalardan foydalanish; masalan, uglerod soliqlari yoki ifloslanish uchun ruxsatnomalar savdosi	Iqtisodiy faoliyatni tabiiy tizimlar bilan integratsiyalash; masalan, ekologik xizmatlarning iqtisodiy qiymatini aniqlash asosida strategiyalarini ishlab chiqish.	Iqtisodiy tizimlarni ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror qilishga qaratilgan siyosatlar va amaliyotlarni ilgari surish; yashil ish o‘rinlarini yaratish.

Yashil iqtisodiyot sharoitida tog‘-kon sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslarga tayangan holda atrof-muhit, ekologiya va yashil iqtisodiyotga doir iqtisodiy xususiyatlari o‘zaro farqlarga egali bo‘lishini aniqlash tadqiqot maqsad va vazifalarini ketma-ketma to‘g‘ri amalga oshirishga xizmat qiladi (1-jadval). Shuningdek, tog‘-kon sanoat korxonalarida atrof-muhit, ekologiya va yashil iqtisodiy siyosatini belgilovchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yuritiladi. Bu o‘z navbatida, nazariy qarashlarning korxonada amaliy ahamiyatini ilgari surishga ko‘mak beradi. Konchilik korxonalarining yashil iqtisodiy samaradorligini grinometrik yondashuv va ekologik investitsion baholash

⁶ Muallif ishlanmasi

uchun “Yashil iqtisodiyot”ning ekologik va atrof-muhit iqtisodiyotiga muqobilligini belgilovchi nazariy asoslar orqali baholash tavsiya qilingan (2-jadval).

2-jadval

Tog‘-kon sanoati korxonalarining **grinometrik samaradorligini baholash usullari**⁷

Ko‘rsatkich	Formulasi	Tarkibi
Ekologik samaradorlik	$ES = \frac{RS \cdot (1 - QCU)}{CH + EI}$	ES-ekologik samaradorlik; RS-resurs samaradorligi (%); QCU-qayta ishlanmagan chiqindi ulushi (%); Ch-chiqindilarning umumiy hajmi (%); EI-energiya iste‘moli (%)
Yashil iqtisodiy samaradorlik	$YIS = \frac{UF \cdot RI - IX \cdot (1 - SI)}{UX + RINV \div 100}$	YIS-yashil iqtisodiy samaradorlik; UF-umumiy foyda (mlrd so‘m); RI-resurs investitsiyasi (mlrd so‘m); IX-investitsion xarajatlar (mlrd so‘m); SI-soliq imtiyozlari (%); UX-umumiy xarajatlar (mlrd so‘m); RINV-real investitsiya (mlrd so‘m)
Tabiatga uyg‘unlik ko‘rsatkichi ⁸	$TUK = \frac{UM \cdot RYD}{TM \cdot EEU}$	TUK-tabiatga uyg‘unlik; UM-umumiy materiallar (mlrd so‘m); RYD-resurslarni yo‘qotish darajasi (%); TM-tiklanadigan materiallar (mlrd so‘m); EYEU-ekologik energiya ulushi
Yashil investitsiya samaradorligi ⁹	$YInvS = \frac{IN \cdot (IMH/RH)}{IMH/EX}$	YInvS-yashil investitsiya samaradorligi; IN-investitsiya natijasida iqtisodiy o‘shish (%); IMH-ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mlrd so‘m); RH-resurs hajmi (mlrd so‘m); EX-ekologik xarajat (mlrd so‘m)
Yashil o‘shish indeksi ¹⁰	$YOI = \frac{(HO - OO) \cdot IS}{(OO + RH) \cdot (1 + EXU)}$	YOI-yashil o‘shish indeksi; HO-hozirgi yillik o‘shish (%); OO-oldingi yillik o‘shish (%); IS-ishlab chiqarish samaradorligi (mlrd so‘m); RH-resurs hajmi (%); EXU-ekologik xarajat ulushi (%)
Yashil ishlab chiqarish samaradorligi ¹¹	$YISam = \frac{IM \cdot ES}{(IR + TR) \cdot (1 - UCH)}$	YISam-yashil ishlab chiqarish samaradorligi; IM-ishlab chiqarilgan mahsulot (%); ES-energiya samaradorligi (%); IR-iste‘mol resursi (%); TR-tiklangan resurs (%); UCH-umumiy chiqindi ulushi (%)
Sirkulyar iqtisodiy samaradorlik ¹²	$SIS = \frac{QM \cdot (UM \cdot RY) - (1 - QY)}{UM \cdot EX} \cdot 100$	SIS-sirkulyar iqtisodiy samaradorlik; Qqayta ishlangan materiallar (tonna/yil); UM-umumiy materiallar (mln t); RY-resurs yo‘qotilishi (%); QY-qayta ishlashdagi yo‘qotishlar (%); EX-ekologik xarajat (mln so‘m/t)
Yashil innovatsion faoliyat darajasi ¹³	$YIFD = \frac{TS}{IFD} \cdot EE \div 100$	YIFD-yashil innovatsion faoliyat darajasi; TS-texnologik samaradorlik (mlrd so‘m); IFD-innovatsion faoliyatdan daromad (mlrd so‘m); EE-ekologik energiya (kVt)
Yashil faoliyat darajasi	$YFD = \frac{TE \cdot IS}{(IRH + ICH) \cdot (1 + EXU)}$	YFD-yashil faoliyat darajasi; TE-tejalgan energiya (kVt); IS-ishlab chiqarish samaradorligi (%); IRH-iste‘mol resurs hajmi (t/yil); ICH-ishlab chiqarish chiqindilari (t/yil); EXU-ekologik xarajat ulushi (%)
Qayta ishlashga asoslangan yashil mehnat faoliyati	$QYMF = \frac{QQ \cdot QCH}{IK} \cdot 100$	QYMF-yashil mehnat faoliyati; QQ-qayta ishlashdan qo‘shimcha qiymat (mlrd so‘m); QCH-qayta ishlangan chiqindi (t/yil); IK-ishchi kuchi (nafar)

⁷ Muallif tomonidan tizimlashtirildi

⁸ Nyakuwanika M., van der Poll H. M., van der Poll J. A. A conceptual framework for greener goldmining through environmental management accounting practices (Emaps)//Sustainability.-2021.-T.13-№. 18. - S. 10466.

⁹ Zhao L. et al. Green investment, financial efficiency, and sustainable development: Dual perspectives of enterprise cost and government guidance //Applied Spatial Analysis and Policy. - 2024. - T. 17. - №. 2. - S. 799-821.

¹⁰ UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. <https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy> (2011)

¹¹ Zhongling Z., Xiwen F. The research and practice of green production and recycling economy in gold mine enterprise //2010 2nd IEEE International Conference on Information Management and Engineering. - IEEE, 2010. - S. 518-522.

¹² Liu X., Guo P., Guo S. Assessing the eco-efficiency of a circular economy system in China’s coal mining areas: Emery and data envelopment analysis //Journal of Cleaner Production. - 2019. - T. 206. - S. 1101-1109.


¹³ Suleman A. R., Kyei-Frimpong M., Akwetey-Siaw B. The role of green innovation in the relationship between green HRM practices and sustainable business performance; evidence from the mining industry //Asia-Pacific Journal of Business Administration. - 2024. - T. 16. - №. 5. - S. 1112-1131.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy asoslar iqtisodiy jihatdan “yashil” maqomini o‘zlashtirishning munosibligini namoyon etgan bo‘lib, buning asosiy sababi ishlab chiqarish va foyda ko‘rishga bo‘lgan manfaatlarning ustunligini mezonlar va standartlar asosida boshqarish asosan iqtisodiy infratuzilmada kuzatiladi va shu bois uning ixtiyorida boshqaruvni tashkil etish va uning nazorat mexanizmlarini tatbiq etish o‘zining xususiy jihatlari bilan ajralib turganligi va ta’sir kuchining yuqoriroqligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ushbu muqobillikni belgilovchi nazariy asoslar tadqiqotni baholash jihatdan yondashuvni qat’iy belgilashga ko‘mak beradi (2-jadval).

Tog‘-kon sanoatining grinometrik samaradorligini baholashda yuqoridagi jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ko‘rsatkichlar nafaqat resurslardan oqilona foydalanishni kuzatishga, balki yashil texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini baholashga ham yordam beradi. Ushbu ko‘rsatkichlar konchilikda samaradorlikni oshirish bilan birga, sanoatning yashil iqtisodiyotga moslashuv darajasini aniqlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy faoliyati va uning samaradorligi holati tahlili**” deb nomlanib, unda “Olmaliq KMK” AJ konchilik sanoati korxonasi innovatsion faoliyati izchil tadqiq etilgan.

Sanoat ishlab chiqarishining 2019-2024-yillar oralig‘idagi umumiy tendensiyalari tahlil qilinganda, ko‘plab tarmoqlarda barqaror o‘shish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yilda ayrim segmentlarda sezilarli pasayish qayd etilgan. “Olmaliq KMK” AJning mis ishlab chiqarish va polimetall rudalarni qazib olish bo‘yicha natijalar nisbatan barqaror saqlangan bo‘lsa-da, rux ishlab chiqarishning keskin tushib ketishi ushbu sektorning muammolar oldida turganligini ko‘rsatadi. Bu davrda sanoat sektorida texnologik rivojlanish, global talabning o‘zgarishi va investitsiyaviy omillar ishlab chiqarish hajmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan (1-rasm).



1-rasm. “Olmaliq KMK” AJning asosiy ishlab chiqarish faoliyati mahsulotlari hajmining o‘zgarishi (2019-2024 yy, foizda)¹⁴

Mahalliyashtirish hajmining 2019-2024-yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatilib, bunda 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich maksimal darajaga yetgan. Ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va xarajatlarni kamaytirish chora-tadbirlariga yo‘naltirilgan mablag‘larning ortishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu korxonalar tomonidan innovatsion

¹⁴ <https://agmk.uz/oz/analitik/>

texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va logistika tizimini optimallashtirish natijasidir. Shuningdek, sanoat kooperatsiyasining dinamikasi ham sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatadi, bu tarmoqlararo integratsiya jarayonlarining jadallashgani va sanoatni diversifikatsiyalashga bo'lgan e'tibor ortganini tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi nisbatan barqaror bo'lib, bu ishlab chiqarish infratuzilmasining samarali boshqarilayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

“Olmaliq KMK” AJning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar (2019-2024 yy)¹⁵

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish qiymati (o‘tgan yilga nisbatan, foizda)	102	101,8	100,1	103	101,4	100,4
Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish (mlrd. so‘m)	661,1	915,7	604,8	335,7	337,5	1670,5
Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish (mln AQSh dollari)	154,2	912,4	393,6	203,1	269,4	1329,5
Ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish chora-tadbirlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar (mlrd so‘m)	29,6	30,2	29,2	29,9	28,7	28,8
Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar (o‘tgan yilga nisbatan, foizda)	129,8	119,1	134,5	141	147	103
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi (mlrd so‘m)	131,4	157,1	217,2	334,1	429	1567

“Olmaliq KMK” AJning mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ayrim yillarda pasayish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lsa-da, 2024-yilda 1670,5 mlrd so‘mga yetib, keskin o‘shishni qayd etgan, bu korxonada resurslardan samarali foydalanish strategiyasining kuchayganini anglatadi. Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish ko‘rsatkichlari dinamik o‘shish bilan tavsiflanib, 2024-yilda 1329,5 mln AQSh dollariga yetgan. Ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va xarajatlarni optimallashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar nisbatan barqaror saqlangan, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish ko‘rsatkichlarining o‘shishida namoyon bo‘lgan.

4-jadval

“Olmaliq KMK” AJning samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (2019-2024 yy)¹⁶

	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Eksport qilingan mahsulotlar (foiz)	107,3	101,4	133,7	110,7	102,5	111,1
Mahsulot sotishdan daromad (mlrd. AQSh dollari)	26,9	24,8	25,1	30,502	31,048	27,285
Sof foyda (mlrd. AQSh dollari)	1,93	2,557	4,135	6,673	6,711	6,145
Xarajat (mlrd. AQSh dollari)	10,305	13,405	16,416	18,191	20,016	21,733
Ishlab chiqarish tannarxi (mlrd. AQSh dollari)	6,669	8,781	10,859	12,421	13,935	15,382
Moliyaviy mustaqillik (foizda)	125	113,9	124,9	132,9	183,1	184,9
Qoplash qobiliyati (foizda)	120,4	122,5	102,1	130,3	107,8	90,1
Xorij valyitasidan mustaqillik ko‘rsatkichi (foizda)	132,7	134,4	155,4	159,4	162,5	150,9

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining 2019-yildagi 131,4 mlrd so‘mdan 2024-yilda 1567 mlrd so‘mga yetishi korxonada texnologik

¹⁵ <https://agmk.uz/oz/menu/sustainability-reports>

¹⁶ <https://agmk.uz/oz/menu/key-performance-indicators>

modernizatsiya, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishini ifodalaydi.

Moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichining o'tgan yilga nisbatan 2023-yilda sezilarli oshib 184,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, qoplash qobiliyati 2024-yilda 90,1 foizgacha tushgan, bu kapital aylanishi va xarajatlar dinamikasining o'zgarishi bilan bog'liq. Xorijiy valyutadan mustaqillik ko'rsatkichi 2021-2023-yillarda ortib, 162,5 foizgacha yetgan bo'lsa-da, 2024-yilda biroz pasayib bu ichki moliyaviy resurslardan foydalanish strategiyasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (4-jadval).

Jamiyatning ekologik va yashil iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari xuddi shu davr davomida 1 dan yuqori qiymatlarni saqlab qolgan bo'lib, bu ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan foydalanish nisbatan samarali ekanini hamda iqtisodiy natijalar ekologik omillar bilan ma'lum darajada uyg'unlashganini anglatadi (5-jadval). Ayniqsa, 2021 va 2024-yillarda yashil iqtisodiy samaradorlikning keskin oshishi (mos ravishda 2,036 va 2,008) yashil texnologiyalar, energiya tejamkor yechimlar va xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samarasini kuchaytirganini ko'rsatadi. Tabiatga uyg'unlik ko'rsatkichi 2021-yilda 1,150 ga yetib, eng yuqori darajani namoyon etgan bo'lsa-da, keyingi yillarda keskin pasayishi ekologik barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar (resurs yo'qotishlari, ekologik yuklamaning oshishi yoki ekologik energiya ulushining kamayishi) kuchayganidan dalolat beradi.

5-jadval

Tog'-kon sanoati korxonalarining grinometrik samaradorligi (2019-2024 yy)¹⁷

Ko'rsatkich nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ekologik samaradorlik	1,786	1,883	1,943	1,871	1,856	1,966
Yashil iqtisodiy samaradorlik	1,776	1,461	2,036	1,882	1,832	2,008
Tabiatga uyg'unlik ko'rsatkichi	0,699	0,831	1,150	1,001	0,091	0,108
Yashil investitsiya samaradorligi	0,105	0,125	0,339	-0,021	0,004	0,012
Yashil o'sish indeksi	-0,259	0,192	0,096	-0,100	0,002	0,002
Yashil ishlab chiqarish samaradorligi	2,159	2,259	3,731	3,640	3,819	4,727
Sirkulyar iqtisodiy samaradorlik	0,039	0,955	0,839	0,950	0,020	0,018
Yashil innovatsion faoliyat darajasi	3,712	3,246	2,854	2,855	1,869	2,277
Yashil faoliyat darajasi	0,069	0,070	0,068	0,432	1,812	38,304
Qayta ishlashga asoslangan yashil mehnat faoliyati	0,600	0,694	0,699	0,701	0,790	0,679

Yashil investitsiya samaradorligi hamda yashil o'sish indeksining ayrim yillarda manfiy yoki nolga yaqin qiymatlar bilan namoyon bo'lishi investitsiyalarning ekologik va iqtisodiy natijalari o'rtasida vaqt bo'yicha uzilish mavjudligini ko'rsatadi, ya'ni kiritilgan yashil investitsiyalar darhol o'sish effektini bermasdan, asosan uzoq muddatda o'z samarasini namoyon qiladi. Bunga teskari ravishda, yashil ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichining 2019-yildagi 2,159 dan 2024-yilda 4,727 gacha izchil o'sishi ishlab chiqarish jarayonlarida energiya va resurslardan foydalanish samaradorligi bosqichma-bosqich oshib borayotganini, ya'ni yashil iqtisodiyotning transformatsiyasi real sektor darajasida mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Sirkulyar iqtisodiy samaradorlik va qayta ishlashga asoslangan yashil mehnat faoliyati ko'rsatkichlari nisbatan past, ammo barqaror qiymatlarda shakllanib, qayta ishlash jarayonlari hali to'liq salohiyatiga chiqmaganini, biroq ularning ijobiy institutsional va texnologik asoslari

¹⁷ "Olmaliq KMK" AJ ma'lumotlari asosida sarhisob qilindi


shakllanayotganini anglatadi. Ayniqsa, yashil faoliyat darajasining 2024-yilda keskin oshishi (38,304) tizimli ekologik va energetik choralar uyg'un holda amalga oshirilganini ko'rsatib, bu holat kelgusida yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarining ko'pchiligi bo'yicha multiplikativ ijobiy ta'sir yuzaga kelishi ehtimolini kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Olmaliq KMK” AJning yashil iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari va uning istiqbollari**” deb nomlangan, unda korxonaning yashil iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, samaradorlik modeli va strategik yo'nalishlar ilmiy asoslangan holda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, grinometrik baholash yondashuvi asosida ekologik investitsiyalar samaradorligini oshirish, uglerod neytralligiga erishish, yashil texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar aniqlangan.

Yashil iqtisodiyotga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm “Olmaliq KMK” AJda shu kunga qadar ishlab chiqilmagan bo'lib, uning faoliyati tabiiy resurslarni saqlash, atrof-muhit muhofazasi va ekologik qo'llab-quvvatlashga doir siyosati doirasida ish faoliyati olib borilgan, qat'iy tashkiliy-iqtisodiy asoslari keltirilmagan. Biroq, bu korxonada yashil iqtisodiyot doirasida hech qanday faoliyat olib borilmagan degani emas, aksincha uning infratuzilmaviy elementlarini korxonada tashkiliy jarayonlarida ishtiroki ta'minlangan birga iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali yashil iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga doir tizimli ish olib borilmagan xolos. Shuning uchun, tadqiqotda mazkur tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni grinometrik xususiyatlariga e'tibor bergan holda ishlab chiqish, moliyalashtirish, texnologik ta'minot va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash singari yirik kombinatsion yo'nalishlarga ajratishni maqsadga muvofiq deb topildi. Qolaversa, ijtimoiy ma'suliyat doirasida “Olmaliq KMK” AJning xodimlarini salomatligini himoya qilish, zararsiz mehnat sharoitini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar mexanizmida aks ettirildi (2-rasm).

Zamonaviy tog'-kon sanoatida barqaror rivojlanishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustuvor vazifalar hisoblanadi. “Olmaliq KMK” AJ yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuvni qo'llab, grinometrik tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishda, ishlab chiqarish samaradorligi, ekologik barqarorlik, yashil investitsiyalar tamoyillariga asoslangan holda uning joriy etilishi uglerod neytrallik, chiqindisiz ishlab chiqarish kabi natijalariga qaratilgan.

Karbon neytrallikka erishish maqsadida “Olmaliq KMK” AJda karbon kreditlari tizimini joriy qilish uglerod chiqindilarini kompensatsiya qilish uchun CO₂ ni ushlab qolish va qayta ishlash texnologiyalarini tatbiq etish ayni muddao sanaladi. Ushbu mexanizm atmosferaga chiqariladigan emissiyalarni nolga tushirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda sun'iy intellekt (AI) va mashinalarni o'rganish (ML) texnologiyalari kon qazib olish jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhimligi qayd etildi. Xususan, “Deyep Earth AI” texnologiyasidan foydalangan holda foydali qazilmalarni aniqlash va qazib olish jarayonlarini optimallashtirish lozim.



2-rasm. “Olmalik KMK” AJning grinometrik tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹⁸

¹⁸ Muallif ishlanmasi

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha barcha jarayonlarni samarali boshqarish uchun "Natija va nazorat bosqichi" mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm kapitalning aylanish tezligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va qo'shimcha qiymatni orttirish imkonini beradi. Grinometrik tashkiliy-iqtisodiy mexanizm asosida 2024- yilda "Qayta tiklanuvchi energiyaga asoslangan konchilik" hamda "An'anaviy kon ishchilarini yashil energiya sohasiga yo'naltirish"da "Olmaliq KMK" AJning 98 ta ishlab chiqarish va ijtimoiy soha obyektlarida umumiy quvvati 9 041 kVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari o'rnatildi.

